

**KETRIN MENSFIELD IJODIDA AYOL OBRAZI VA AYOL
TAQDIRI MASALASI**

Saydamatova Dilshoda Hamidulla qizi

NamDU talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning qobiliyatli Ingliz yozuvchilaridan biri Ketrin Mensfield ijodida ayol obrazi va ayol taqdirining ifolanishi yoritib berilgan. Shu bilan birga uning qisqa hikoyalarida insoniyat ongining nozikligi va rang barangligi ustalik va badiiylik bilan ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jamiyat, ayol, taqdir, psixologiya, obraz, nazm, nasr, baddiy asar, hikoya.

**THE PROBLEM OF FEMALE IMAGE AND FEMALE
DESTINY IN CATHERINE MANSFIELD'S CREATION**

Abstract: This article sheds light on the image of a woman and the expression of female destiny in the work of Katherine Mansfield, one of the most talented English writers of the 20th century. At the same time, his short stories skillfully and artistically reveal the subtleties and colors of the human mind.

Key words: society, woman, fate, psychology, image, poem, prose, literary work, story.

**ПРОБЛЕМА ЖЕНСКОГО ОБРАЗА И ЖЕНСКОЙ
СУДЬБЫ В ТВОРЧЕСТВЕ КЭТРИН МЭНСФИЛД**

Аннотация: Данная статья проливает свет на образ женщины и выражение женской судьбы в творчестве Кэтрин Мэнсфилд, одной из талантливейших английских писательниц 20 века. В то же время в его новеллах мастерски и художественно раскрываются тонкости и краски человеческого разума.

Ключевые слова: общество, женщина, судьба, психология, образ, стихотворение, проза, литературное произведение, рассказ.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Har bir xalq milliy qarashlaridan kelib chiqqan holda o‘z adabiyotida ayol obrazini turlicha tasvirlaydi. Ingliz adabiyotida ayol obrazi davrlar davomida tadrijiy o‘zgarib borgan. XX asr ingliz nasrida va nazmda ayol obrazi yozuvchilar tomonidan to‘laqonli ideallashtirilgan holda yaratilgan. Adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz biz ayol obrazini yaratishda asosan ayol va jamiyat o‘rtasidagi munosabatdan, ayolning jamiyat qatlamlarida qanday tan olinishi va uning jamiyatda, oilada o‘rnini tahlil qilgan holda ayolning nasrda tasvirlanishiga baho berish mumkin. Har bir milliy adabiyotdagi ayol obraziga to’xtaladigan bo‘lsak, u o‘sha xalqning tabiatiga, zamon ruhiga mos tarzda aks etadi, idrok qilinadi. Binobarin, bir xil sharoitda harakat qiladigan personajlar har bir adabiyotda turlicha gavdalanadi.

Badiiy obraz - borliqning badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o‘sha borliqning oddiygina aksi emas, u borliqning san’atkor ko’zi bilan ko’rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Badiiy obraz o’zida aql va hisni uyg’un birlashtiradiki, shu bois uni ratsional va emotsiyal birlik sifatida tushuniladi.

Badiiy obrazdagi ratsional jihat shundaki, uning yordamida ijodkor o’zini qiyagan muammolarni badiiy idrok etadi. Masalan, jahon adabiyotining yorqin vakili Ketrin Mensfild asarida obrazlarning real tasviri yozuvchi mahorati tufayli yuksak badiiylik kashf etgan. U o‘z asarlari uchun ko’plab mukofotlarga sazovor bo’lgan. Negaki, asarning saviyasi, uning ta’sir qilish kuchi juda ham kuchli. Uning asarlarini, hikoyalarini o’qigan kishi voqealarning ketma –ketligiyu, rivojiga qoyil qolmay iloji yo’q.

Ketrin Mensfildning hikoyalari Angliyada juda mashxur. U qisqa hikoya janrida haqiqiy burilish yasagan. Ketrinni o‘sha davr yozuvchilari haqiqiy novator, tragik figura, o’tkir qalam sohibasi sifatida ko’rishgan. Mensfild hayoti davomida Yevropaning judayam ko’p joylarida yashagan va u yerlardan ilhom olgan. XX asrning birinchi yarmi Ketrin Mensfild uchun omadli bo’ldi va bir qator asarlari chop etildi. Uning ilk hikoyalari to’plami “In a German pension” unga katta muvaffaqiyat va yozuvchilar orasidan o’rin berdi. Ketrin Mensfild o’z ijod yo’lini tanlab olgan edi bunga asosiy sabab uning rus adabiyotiga o’zgacha e’tibor qaratib

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mehr qo'yganligi bo'ldi. Ketrin butun umri davomida rus adabiyotida A.P. Chexov ijodiga judayam qiziqqan. Uning asarlarini rus adabiyotining yorqin namunasi deb hisoblagan. Chexov ijodidan o'z ijodi uchun ko'plab namunalar o'qib undan ruxlangan va bunga asos bo'lib A.P.Chexovning xatlari va kundaliklari xizmat qilgan. Bu holatlar uning badiiy adabiyotdagi his tuyg'ulariga ta'sir o'tkazgan inson taqdiri va uning jamiyatdagi o'rmini hikoyalarining markaziga qo'yadi. Shunga o'xshash holatni o'zbek yozuvchilaridan A. Qahhor ijodida ham ko'rishimiz mumkin . Vaholanki, Abdulla Qahhor ham asosan Chexovning asarlaridan ruhlangan holda ko'plab mashxur hikoyalarini yozgan. Su sabab ham, Ketrin Mensfild va Abdulla Qahhor ijodida Chexov ijod yo'nalishini ham uchratishimiz mumkin.

Ketrin Mensfildning hikoyalaridan kelib chiqib, uni psixologik hikoyalar ustasi deyishimiz ham mumkin. Chunki, uning hikoyalari o'zining ko'pqirraligi va o'ziga xos lirizmi bilan birga inson ichki his tuyg'ularini ochib beradi. Mensfild bir qator hikoyalari orqali oiladagi munosabatlar va muammolarni, oila a'zolarining bir –birlariga bo'lган munosabatlari va ayollarning jamiyatdagi o'rni, o'y – hayollarini bilinar –bilinmas chiziqlar orqali muhokamaga qo'ygan. Mensfild ma'lum ishga qo'l urishdan oldin hikoya qahramoning o'rniga o'zini qo'yib ko'rар, his – tuyg'ularini o'ziga singdirib ko'rardi. U bu haqida shunday deydi: - “when I described duck, I swear, I am also a white duck with round eyes swimming in the yellow foam bubbling pool, occasionally having a quick glimpse of my inverted reflectionin water.” Bundan ko'rindiki, Mensfild hikoyalarida asosiysi uning hikoyalarining tor ma'noda emas, aksincha qahramonlar holatini yurakni eritadigan vaziyatlarda ochib bergen. Yozuvchi nima yozish va uni kitobxonga qanday yetkazib berishdek buyuk badiiy vazifasini o'z o'rnida bajargan [1].

Masalan, Ketrin Mensfildning “ qora shapka” nomli hikoyasida qahramon qiz sevimli yorining boshidagi eski qora shlyapasiga qarab, uning sevgilisiga nisbatan fikri o'zgarishi va unga butun umrini bog'lash fikridaligini yoritib bergen. Bu esa u oddiygina qiz orqali ayolning qanchalar uzoqni ko'ra olishi va ayollik baxti nimalarga sabab bo'lishini judayam chiroyli tarzda ifodalagan [2].

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Ketrin Mensfield asarlarida ayol obrazi va xarakter xususiyatlari, faoliyati hayotdagi real odamlarga mos keladigan tarzda umumlashtirib, o'ziga xos sharoitda haqqoniylashtirib yaratilgan obrazlardan iborat. Adibning mahorati ham ularni badiiy jihatdan mukammal darajada yoritib, obraz psixologiyasini erkin ochib bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hanson C. Short stories and short fictions. 1880-1980. L.,1985.
2. Katherine Mensfield. Selected stories. – Moscow. 1959.P.182
3. Katherine Mansfield, from a letter to Virginia woolf, AUGUST1917
4. Sultonov U. Cho'lponning adabiy – estetik qarashlari. –T.:NDA,1995.
5. www.fayllar.org
6. www.cyberleninka.ru